



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сурхондарё вилояти

190100, Termiz shahri , Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Турон" bank Tel-Fax:
(376)-22-3-24-87, 22-3-06-42, 22-3-24-75 Mail: surxonekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: NURALIYEV NURBEK BAXTIYOROVICH

Sana:27-12-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 137102

Obyekt nomi «4K600 "M41avtoyo'li (1618km) - Manguzar q. - Daryo porti" avtomobil yo'lining 2-5.4km qismini rekonstruksiya qilish ishchi loyihasini qayta ishlash bo'yicha (2016 yil 5 iyulda berilgan 416-2016/307 va 2018 yil 5 iyulda berilgan 576-2018/586 sonli ekspertiza xulosalariga qo'shimcha)»

Buyurtmachi - Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi" DUK.

Bosh loyihachi - "Architects Project Group" MChJ

Litsenziya AL-000092 sonli, 2023 yil 13 sentabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan berilgan.

Moliyalashtirish manbai - Budget mablag'lari

Bosh pudratchi - Tanlov savdolari natijasida aniqlanadi

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 128197

1. Loyihalash uchun asos

1.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabr sanasidagi "2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-465 sonli Qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023 yil 16 iyundagi Bayoni.

1.3. 2023 yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan loyiha topshirig'i.

1.4. Surxondaryo viloyat qurilish va uy-joy xo'jaligi boshqarmasi tomonidan 2023 yil 25 dekabr sanasida berilgan 1722-1722401-100991 sonli me'moriy rejalashtirish topshirig'i.

1.5. Ob'ektning muhandislik tarmoqlari ta'minoti uchun tegishli mutassadi tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar.

1.6. Buyurtmachining 2023 yil 26 dekabrda GZ/05-3060 sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Yo'riqnoma. va matnli ma'lumot.

2.2. Qurilishni tashkillashtirish loyihasi.

2.3.Yo'l rejasi, andozaviy ko'ndalang kesim turlari, yo'l to'shamasi konstruksiyasi, harakat xavfsizlikligini tashkil etish.

2.4. Bo'ylama va ko'ndalang kesimlar chizmalari.

2.5. Ob'ektning geologik ma'lumotlari xisoboti.

2.6. Umumiy smeta Smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

4K600 "M41avtoyo'li (1618km) - Manguzar q. - Daryo porti" avtomobil yo'lining 2-5.4km qismini rekonstruksiya qilish (1chi bosqich)" ishchi loyihasi 2016 yil iyul oyida tavsiyaviy smeta narxi QQS bilan hisoblanib 16 070 297,094 ming so'm miqdorida ekspertizadan o'tgan va 2016 yilning 5 iyul sanasida 416-2016/307 sonli xulosa berilgan.

So'ngra, 4K600 "M41avtoyo'li (1618km) - Manguzar q. - Daryo porti" avtomobil yo'lining 2-5.4km qismini rekonstruksiya qilish (2chi bosqich)" ishchi loyihasi 2018 yil iyul oyida tavsiyaviy smeta narxi QQS bilan hisoblanib 10 739 559,005 ming so'm miqdorida ekspertizadan o'tgan va 2016 yilning 5 iyul sanasida 576-2018/586 sonli xulosa berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabr sanasidagi PQ-465 sonli Qarori va Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023 yil 16 iyundagi Bayoniga asosan buyurtmachining 2023 yil 26 dekabrda GZ/05-3060 sonli xatiga ko'ra ishchi loyiha qayta ishlangan.

3.1. Qurilish maydoni ta'rifi:

- qurilish maydoni IV A klimatik hududga tegishli,
- havoning qishgi hisobiy harorati- (- 12oS),
- shamol oqimi myo'riy tezligi - 0.48 kPa,
- qorning myo'riy yuki - 0.50 kPa,
- qurilish hududi zilzilalikligi - 7 bal.

2016 yilda "O'ZGASHKLITI" DUK Surxondaryo viloyati filiali tomonidan o'tkazilgan izlanishlar natijasiga ko'ra qurilish maydonining muhandislik geologik sharoitlari quyidagicha ifodalanadi:

- tuproqning seysmik xususiyati bo'yicha turi -III,
- qurilish maydonining xisoblari uchun seysmikligi - 8 ball,
- asosning tuproq qatlami -supes qatlamlari aralashgan suglinki, malla rangli, kamnamli va namli, o'rta zichlikda,
- tuproqning cho'kuvchanligi bo'yicha turi -I,
- yerosti suvi yer sathidan 3.5m-6.0 chuqurlikda aniqlanmadi,
- qurilish joyidagi tuproqlar GOST10178-85* muvofiq o'rta agressiv.

Trassa rejasi

Loyihalanayotgan avtomobil yo'li trassasi bo'yicha barcha o'lchamlar va loyihaviy yechimlar 2.05.02-07 sonli shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq ko'zda tutildi.

Bo'ylama kesimi

Bo'ylama nishablar parametrlari yo'l harakati xavfsizligi talablari asosida belgilangan.

Loyihada botiq egrilik minimal radiusi -80m, qabariq egrilik minimal radiusi -150m, maksimal bo'ylama nishab - 10‰, 40‰ dan ko'p emas.

Ko'ndalang kesimi

Avtomobil yo'li ko'ndalang kesimining konstruktiv yechimlari umumshahar miqyosidagi magistral ko'chalar avtoyo'llari shahar tipi bo'yicha "Avtomobil yo'llari" nomli 2.05.02-07 sonli ShNQ va "Shahar va qishloq aholi punktlar hududlarida qurilishni va rivojlantirishni rejalashtirish" nomli 2.07.01-03 ShNQ talablariga asosan bajarilgan.

- yo'lining texnik toifasi-II,
- harakt tasmasi soni - 4,
- qatnov qismi kengligi - 3.75 m,

- qatnov qismi umumiy kengligi – 16.5m,
- qatnov qismi ko'ndalang nishabi – 15% o.

Loyihada avtoyo'llarning har 20m oralig'ida va ayrim individual holatlar yechimi uchun ko'ndalang kesimlari ishlab chiqilgan.

Yer ishlari

Yer poyi ko'ndalang profili 2 turda qabul qilingan -o'yma va ko'tarma.

Yo'l to'shamasi

Yo'l qoplamasi konstruksiyasi texnik toifa talablariga ko'ra, o'q bo'ylab 100kN yukka mo'ljallangan va hisoblangan.

Avtoyo'l asosi konstruksiyasi quyidagi tarkibda:

- qum-shagal aralashmasidan asosning quyi qatlamini yotqizish, GOST 25607-2009 ga binoan qalinligi 21sm;
- qum-shag'al aralashmasiga 30%gacha frezadan chiqqan maxsulot yoki chaqiq toshdan qo'shgan holda asosning o'rta qatlamini yotqizish, GOST 25607-2009 ga binoan qalinligi 15sm;
- qaynoq yuqori g'ovakli yirik donali asfaltobeton qorishmasidan asosning ustki qatlamini yotqizish I markali GOST 9128-2013 ga binoan qalinligi 7sm;
- qaynoq yirik donali asfaltobeton qorishmasidan qoplamaning quyi qatlamini yotkizish I markali GOST 9128-2013 ga binoan qalinligi 7sm;
- qaynok mayda donali zich asfaltobeton qorishmasidan qoplamaning ustki qatlamini yotkizish, B turidagi I markali GOST 9128-2013 ga binoan qalinligi 5sm.

Tutashma va kesishmalar

Loyihalanayotgan avtomobil yo'lga tutashuvchi avtomobil yo'llari va uylarga boradigan tutashmalarni xam mavjud xolatiga qarab 2.05.02-07 sonli ShNQ talablari asosida ish turlari inobatga olindi.

Sun'iy inshootlar

Loyihalanayotgan mazkur yo'lining PK 24+55 da yo'lni kesib o'tuvchi, D273 mmli metall suv o'tkazish quvurlari o'rnatilishi va asosiy yo'ldan ichki yo'l, uylarga kirish va chiqish joylariga D325mmli metall quvurlar o'rnatishi inobatga olingan.

Piyodalar yo'lakchalari

Loyihalanayotgan avtomobil yo'lida piyodalar qatnovini ta'minlash uchun yo'lining chap va o'ng tomonlarida, piyodalar yo'lakchasi qurish inobatga olingan. Piyodalar yo'lakchasining kengligi 2.25-3.0m bo'lib, asosiga 12sm qalinlikda QShA to'shab 10sm qalinlikda B22.5 quyma betondan qoplama yotqizilishi inobatga olingan.

Yo'lni tartibga solish

Yo'l harakatini tartibga solish, avtoyo'lda va tutashmalarda harakatlanish jarayonida haydovchilarni yo'ldagi vaziyatning o'zgarishlari, transport vositalari oqimining yo'nalishi va taqsimlanishi haqida ogohlantirish uchun svetoforlar va turli xildagi tegishli yo'l belgilari o'rnatilishi inobatga olingan. Yo'l belgilariga mos ravishda GOST 23457 – 86, GOST 13508-74 va MKN23-2008 asosan qatnov qismida yo'l chiziqlari ko'zda tutilgan.

Loyihaga uyushtirilgan yo'lovchi tashishga xizmat ko'rsatish uchun yo'lining chap va o'ng tomonlarida avtobus bekatlari qurilishi kiritilgan. Avtobus bekatlari yo'lovchilar jamoa transvportini kutish usun to'planadigan joylarda qurilishi ko'zda tutilgan.

Tunda avtoyo'lni yoritish uchun avtoyo'lining ikki tomonlama chetlarida metall quvurli ustunlar va ularning ikki shoxli kronshteynlariga energiya tejimli lampali chiroqlar o'rnatilishi inobatga olingan.

Tungi yoritish chiroqlari, svetaforlar va sug'orish tizimlari elektr ta'minoti transformator podstantsiyasi o'rnatilishi va "Termiz" PS 110/35/6kV RP-2 14-fider 6kV HEUYining eng yaqin tayanchiga ulanishi bilan amalga oshiriladi.

Ko'kalamzorlashtirish yechimi daraxt va butalar ekilishi bilan hal qilinadi. Loyihada qurilish jarayonida daraxt va butalarni parvarish qilish va zararkunandalardan himoya qilish choralari inobatga olingan.

Trassa yuzasidan yog'in suvlarini qochirish uchun yo'l chetlarida yig'ma temir betondan irrigatsiya novlari o'rnatilishi va suvni yig'ib singdiruvchi quduqlar qurilishi va piyodalar yo'laklari, uylarga kirishlar bilan

kesishmasida polietilen va metall quvurlar yotqizilishi ko'zda tutilgan.

Davomiylik muddati

QTL taqvimiy jadvaliga ko'ra qurilish davomiylik muddati 12 oyni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Avtoyo'lining ko'ndalang kesimlari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Surxondaryo viloyati qurilish va uy-joy xo'jaligi, favqulodda vaziyatlar va avtomobil yo'llar hududiy boshqarmalari, Termiz shahar xokimligi va Termiz TYFUK bilan kelishilgan.

5.2. Trassa rejasi buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Surxondaryo viloyati qurilish va uy-joy xo'jaligi, favqulodda vaziyatlar va avtomobil yo'llar hududiy boshqarmalari, Termiz shahar xokimligi va Termiz TYFUK bilan kelishilgan.

5.3. Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan 20169 yil 25 aprelda berilgan 583 sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyihachi tomonidan ishchi loyihaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi:

- yo'l rejasida burchaklar o'rni, egriliklar boshi va oxiri PK holati bo'yicha va jadvali ko'rsatildi,
- yo'l to'shamasi hisobi, ZVOS loyihasi taqdim etildi,
- trassa boshida harakat xavfsizligi ta'minlandi,
- piyodalar yo'lakchasi asosiga GOST 25607-2009 ga asosan S-4 aralashmasi o'rniga tabiiy QShA GOST 23735-2014 bo'yicha qabul qilindi,
- harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida GOST 32944-2014 ga asosan piyodalar o'tish joylari inobatga olindi,
- ko'kalamzorlashtirish hududiga toshib keltiriladigan tuproq og'irligi aniqlandi,
- PK 19 va PK 20 oralig'i chap tomonda chorraha va avtobekat karmani uchun ajratilgan qo'shimcha tasma yechimiga aniqlik kiritildi,
- sfetofor kabellari uchun buzilgan konstruksiyalarni qayta qurish ish hajmi kiritildi,
- ayrim resurs ko'rsatkichlarining (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi transport harajatlari, materiallar) narxlariga aniqlik kiritildi.

6.2. Qurilish ishlari qiymati hisobi.

Taqdim etilgan ishchi loyiha qiymati 14 339 795,498 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, ekspertiza natijasiga ko'ra, taqdim etilgan qiymati 2 090 526,906 ming so'm miqdorida kamayib 12 249 268,592 ming so'mni tasdiqlash uchun tavsiya etildi, jumladan:

- QMI – 10 936 846,957 ming so'm,
- QQS – 1 312 421,635 ming so'm.

Kamayishga asosan ayrim ish turlari hajmlariga va qurilish materiallar narxlariga va element resurs normalarga aniqlik kiritilganligi natijasida erishildi.

6.3. Loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tashkilotining loyiha bo'yicha taklif va tavsiyalarisiz ekspertiza ko'rigiga topshirildi.

6.4. Buyurtmachiga va bosh loyihachiga rekonstruksiya boshlanishidan oldin buyurtmachining boshqa xarajatlari miqdorini 4.01.16-19 sonli ShNQ talablariga asosan aniqlashi shart.

6.5. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579 sonli qarorining 7 ilovasiga muvofiq:

- yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so'ng nazorot o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi;
- ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan xujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

Qayta ishlangan "4K600 "M41avtoyo'li (1618km) - Manguzar q. - Daryo porti" avtomobil yo'lining 2-5.4km qismini rekonstruksiya qilish" ishchi loyihasini ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 martdagi 261 sonli qaroriga va ShNK 04.01.06-09 asos tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo'la olmaydi va ob'ektning boshlang'ich qiymatini yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

Bosh mutaxassis: Soatmurodov Boxodir Allamurodovich

Ishtirokchi ekspertlar:

YO'LDOSHEV G'AYRAT QODIROVICH

Gulboyev Jumanazar Mamatkarimovich

Ashurov Shuxrat Qaxramonovich

MAXMUDOV ISMOIL SOATQUL O'G'LI